**IQRO JURNALI / 2023**
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

# Abdulla Avloniy Buyuk pedagogning ilmiy-adabiy merosi

**Akbarova Guzal Mirkamol qizi**
Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat
Pedagogika Universiteti Tabiiy fanlar
fakulteti Biologiya yo`nalishi 3-kurs talabasi
e-mail: guzalakbarova09@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola pedagog olim, adabiyotshunos, shoir Abdulla Avloniy ilmiy-ijodining ahamiyati haqida, uning pedagogik fikrlari, jadidchilik maktablari uchun yozgan darslik va o`quv-qo`llanmalari, o`quvchilarni kitob o`qishga qiziqtirish uchun darslikka qo`yiladigan talablar haqidagi fikrlari haqida yozilgan.

**Kalit so`zlar:** Usuli jadid**,** maktab, axloq, darslik, o`quv qo`llanma, xrestomatya, pedagogika, maktab kutubxonasi, tarbiya, ma`naviyat.

«Qobil», «Shuhrat», «Hijron», «Avloniy», «Surayyo», «Abulfayz», «Indamas» taxalluslari bilan she’r, hikoya, feleton va kichik hajmli dramatik asarlar yaratgan shoir Abdulla Avloniy o`zbek pedagogikasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Abdulla Avloniyning pedagogika, adabiyot sohasiga qo`shgan hissasi beqiyosdir. Shoir o‘z asarlarida zamonasidagi qoloqlikni, johillikni tanqid qiladi va kishilarni bilimga, ma’rifatga chaqiradi. Abdulla Avloniy 1917 yilgacha mahalliy xalq orasidan yetishib chiqqan noshir va jurnalist sifatida Toshkentda «Shuhrat», «Osiyo» kabi gazetalarni tashkil etadi. U «Advokatlik osonmi?», «Ikki muhabbat», «To‘y», «S’ezd», «Layli va Majnun», «O‘liklar» kabi dramatik asarlarni yozib, ularda jaholat, bid’at, bilimsizlikning fojeali oqibatlarini, qo‘pol va yaramas urf-odatlarni fosh etadi. Abdulla Avloniy shoir sifatida ko‘plab she’rlar bitgan. Uning she’rlari xoh eski urf-odatlarga qarshi qaratilgan bo‘ladimi, xoh muhabbat yoki maktab-maorif haqida bo‘ladimi, hamma-hammasida inson, uning axloqiy go‘zalligi va ma’naviy boyligi kuylanadi. Jumladan, «O‘z mamlakatimizda» she’rida maishat uchun pul-boylikni mo‘l-ko‘l isrof etgan, ammo bola tarbiyasi uchun sariq chaqani ravo ko‘rmagan xasislarni «Ilm uchun pulni ko‘zlari qiymas», deb qoralaydi. Ayniqsa, uning «Adabiyot» (1915) kitobi bu jihatdan alohida ajralib turadi.

«Usulijadid» maktablari uchun to‘rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she’rlar», «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darslik va o‘qish kitoblari tuzdi. Maktab-maorif ishlariga yordam ko‘rsatish maqsadida xayriya jamiyati tashkil qildi. «Nashriyot» shirkati tuzib, Xadrada «Maktab kutubxonasi» kitob do‘konini ochdi.

«Birinchi muallim»da Avloniy dastavval 32 harfni yolg'iz yoziladigan shakllarini bir sahifada alifbo tartibida bergan. Shu sahifada alifning so'zning boshida, o'rtasida va oxirida yozilishini ko'rsatgan, so'ng alifni barcha «bosh harflar»ga qo'shib bo'g'inlar hosil qilgan.

«Ikkinchi muallim»da bolalarning axloq, odobiga doir, halollik va poklikka oid turli she'rlar, hikoya, masal va ertakiar jamlangan, rang-barang allegorik obrazlardan ustalik bilan foydalanilgan.

Kitob «Maktab» she'ri bilanboshlanadi, Undakimki maktabgaborsa, o'qisa, savodxon bo'lsa, juda ko'p narsalarga erishishi chiroyli ta'riflanadi:

Maktab duru gavhar sochar,:

Maktab sizga jannat ochar,

Maktab jaholatdan qochar,

G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!

Maktab sizni inson qilur, ;

Maktab hayo ehson qilur

Maktab g'ami vayron qilur,

G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon..

Dastlabki poetik asarlari “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” (I, II, III juzlar), “Maktab gulistoni” (1916), “Mardikorlar ashulasi” (1917) kitoblarida va “Sabzavor” tazkirasi (1914) hamda vaqtli matbuot sahifalarida chop etilgan asarlaridir. Ularda ilm-ma’rifat targ‘ib qilingan, jaholat va nodonlik, eski tuzumning ijtimoiy-axloqiy asoslari qoralangan, ozod va baxtiyor zamon haqida fikr yuritilgan. Shu jihatdan Avloniyning bu davrdagi she’rlari Hamza, Anbar otin poeziyasiga ohangdoshdir. Avloniy barmoq vaznini adabiyotda keng qo‘llagan. Milliy kuylarga moslab she’rlar yozgan va poeziyaning imkoniyatlarini boyitgan.

Avloniyning adabiyot oldidagi muhim xizmatlaridan biri shu bo‘ldiki, u mardikorlik she’riyati deb atalgan yangi adabiy hodisaning yaratuvchilaridan bo‘ldi. 1916 yilgi mardikorlik voqealarini ifodalovchi “Bir mardikorning otasi o‘g‘liga aytgan so‘zlari”, “Onasining o‘g‘liga aytgan so‘zlari”, “Afsus” kabi she’rlar yozdi. Ona yurtdan uzoq shimolning qorli-muzli yerlariga, front orqasidagi qora xizmatga olib ketilgan mardikorlarning xayrlashuv manzaralarini, haqsizlikni yoritdi. Bu she’rlarning ohang va uslubi xalq qo‘shiqlariga g‘oyat yaqin bo‘lib, ular xalqimizning milliy uyg‘onishida muhim o‘rin tutdi.

Avloniy 1917 yil fevral inqilobini xursandchilik bilan kutib oldi (“Qutuldik”, “Yotma” she’rlari). Oktyabrga bag‘ishlab “Hurriyat marshi” (1919), “Ishchilar qulog‘iga” kabi she’rlar yozdi, yangi sotsialistik tuzumni ulug‘ladi. Lekin ko‘p o‘tmay, rus sovet tuzumi eski chor tuzumining oldingidan battarroq shakli ekanligini, sovet siyosati riyokorlik asosiga qurilganligini anglay boshladi. Jumladan, tantanavor va’da qilingan erkinlikning berilmaganligi shoir ijodida g‘amgin tushkun ohanglarning paydo bo‘lishiga olib keldi (“Haftalik soatda” 1919). Shularga qaramasdan Avloniy turli mavzularda she’rlar yozdi. 1919–20 yilgi Afg‘oniston safariga doir “Afg‘on sayohati” kundaliklari esa mamlakatimizning yon qo‘shnimiz bilan o‘zaro do‘stlik, totuvlik aloqalarining o‘rnatilishi tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Abdulla Avloniyning tashkil etgan maktabi, yozgan darslik va qo`llanmalari pedagogika talablariga to`la javob bera olishi bilan ham diqqatga sazovordir. Bu fikr ulardan oldin tashkil etilgan jadid maktablari, yozilgan darsliklar va qo`llanmalar bunday talablarga javob bera olmaydi, degan xulosani bermaydi. Lekin yangi usul maktablarini tahlil qilish davomida bir jihatga amin bo`ldikki, Abdulla Avloniy va Hamza yozgan darsliklar va o`quv qo`llanmalari bolalarning yoshi, bilim darajasi, qabul qilish va tahlil qila olish, muammoga to`g`ri yechim topa olish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan. Masalan, Avloniyning tovush metodikasiga asoslangan «Birinchi muallim» darsligi «alifbo» hisoblansa, ya‘ni birinchi sinf o`quvchilari uchun mo`ljallangan bo`lsa, «Ikkinchi muallim» darsligi (alifbodan so`ng o`qimak uchun) «xrestomatya» edi. 1913 yili yozilgan «Turkiy guliston yoxud axloq» esa yuqori sinf o_quvchilari uchun zaruriy qo`llanma bo`lib xizmat qildi. Darslik va qo`llanmalarni bu tartibda yozish pedagogikamiz tarixida o`ziga xos yangilik edi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib Abdulla Avloniyning darslik va o`quv qo`llanmalari yaratish faoliyatiga quyidagicha izoh berish mumkin:

Abdulla Avloniy tor, foydasiz, yodaki bilim, sust ravishda o`zlashtriladigan ta‘limga

nafrat bilan qarab, kitobni bilim va fikrga boy manba deb, uni kishi hayotning oynasi deya baholadilar. Ularning fikricha va haqiqatan ham, hamma ish kitobda aniq va to`g`ri beriladi, u nafaqat xotirani, balki aqlni ishlatishga da‘vat etadi. U hisoblaydiki, darslik va o`quv qo`llanmalari badiiy jixatdan yuksak, tarbiyaviy ahamiyat mukammal, bolalarni o`qishga qiziqtira va kitobni sevishga o`rgata oladigan darajada bo`lishi kerak.

Shunisi tahsinga sazovorki, Avloniyning barcha darsliklari kimki savodli bo`lishi xoxlasa, o`zi mustaqil o`qib o`rganishi mumkin bo`lgan darajada tuzilgan edi. Ular kitoblardagi matnlarni tushunarli bo`lishi uchun xalq maqollaridan, hikoyalarning ta‘sirchanligini oshirish maqsadida matal va qochiriqlardan xamda katta ijtmoiylikka ega bo`lgan fikrlardan foydalanishgan. Eng muhimi, bu darsliklarning hammasi pedagogika va bolalar psixologiyasi talablariga muvofiq yozilgan.

Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyatda yana bir jihat ko`zga tashlanadiki, bu ham bo`lsa, darslarni butun sinfdagi o`quvchilarning qabul qilish, anglab yetish, o`zlashtirib olish qobiliyatlarini hisobga olgan holda tashkil etshning yo`lga qo`yilishidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. HoshimovK., NishonovaS., InomovaM., HasanovR. Pedagogikatarixi. – T.: O_qituvchi, 1996.
2. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O_zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
3. Bolalarni tarbiyalash va sog_lomlashtirish ishlarida pedagogik texnologiya.-Toshkent. 2002.
4. Ma‘naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). - T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1999.
5. www.wikipedia.uz
6. www.pedagog.uz
7. www.edu.uz